

AQLIY HUJUM METODIDAN FOYDALANISH TAHLILI

Farg‘ona davlat universiteti akademik litseyi “Xorijiy tillar” kafedrasi fransuz tili fani o‘qituvchisi Usmanova Malika Adilovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada interfaol metodlardan biri bo‘lgan aqliy hujum metodiga to‘xtalamiz. Mazkur metod muayyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo‘llaniladigan metod sanalib, mashg‘ulot ishtirokchilarini muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritish hamda tasavvurlari va g‘oyalardan ijobiy foydalanish borasida ma‘lum ko‘nikma hamda malakalarni hosil qilishga rag‘batlantiradi. Bu metod yordamida tashkil etilgan mashg‘ulotlar jarayonida ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha original echimlarni topish imkoniyati tug‘iladi. “Aqliy hujum” metodi tanlab olingan mavzular doirasida ma‘lum qadriyatlarni aniqlash va ularga muqobil bo‘lgan g‘oyalarni tanlash uchun sharoit yaratadi.

Kalit so‘zlar: O‘yin texnologiyalari ta‘lim samaradorligini ta‘minlash, samarali foydalanishga e‘tibor, ijodiy imkoniyatlar, samimiy muhitni qaror toptirish, nazariy bilimlarini amaliy ko‘nikma va malakalarga aylantirish.

Metoddan samarali foydalanish maqsadida quyidagi qoidalarga amal qilish lozim:

- o‘quvchilarning o‘zlarini erkin his etishlariga sharoit yaratib berish;
- g‘oyalarni yozib borish uchun yozuv taxtasi yoki varaqlarni tayyorlab qo‘yish;
- muammo yoki mavzuni aniqlash;
- mashg‘ulot paytida amal qilinishi lozim bo‘lgan shartlarni belgilash;
- bildirilayotgan g‘oyalarning ularning mualliflari tomonidan asoslanishiga erishish va ularni yozib borish;
- g‘oyalarning turlicha bo‘lishiga ahamiyat qaratiladi;
- boshqalar tomonidan bildirilayotgan fikrlarni yodda saqlash, ularga tayangan holda yangi fikrlarni bildirish, bildirilgan fikrlar asosida muayyan xulosalarga kelish kabi harakatlarning o‘quvchilar tomonidan sodir etilishiga erishiladi
- qog‘oz varaqlarni g‘oya yoki fikrlar bilan to‘lgandan so‘ng ularni yozuv taxtasiga osib qo‘yish;
- boshqalar tomonidan bildirilgan fikrlar ustidan kulish, kinoyali sharhlarning bildirilishiga yo‘l qo‘ymaslik.

Har bir o‘quvchi o‘zining Shaxsiy fikrlariga asoslanilishi va ularni o‘zgartirishi mumkin. Avval bildirilgan fikrlarni umumlashtirish yoki ularni o‘zgartirish ilmiy asoslangan fikrlarning shakllanishiga zamin hozirlaydi.

“Aqliy hujum” metodining tuzilmasi

Muammoli savol beriladi

Fikr va g‘oyalar eshitiladi va jamlab boriladi

Fikr va g‘oyalar guruhlanadi

Aniq va to‘g‘ri javob tanlab olinadi

“Aqliy hujum” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

- Ta’lim oluvchilarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo‘yicha o‘z javoblarini (fikr, g‘oya va mulohaza) bildirishlarini so‘raladi;
- Ta’lim oluvchilar savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishadi;
- Ta’lim oluvchilarning fikr-g‘oyalari (magnitafonga, videotasmaga, rangli qog‘ozlarga yoki doskaga) to‘planadi;
- Fikr-g‘oyalar ma’lum belgilar bo‘yicha guruhlanadi;
- Yuqorida qo‘yilgan savolga aniq va to‘g‘ri javob tanlab olinadi.

«Aqliy hujum» - guruhdagi har bir o‘quvchiga o‘qituvchi tomonidan berilgan savol yoki muammo yuzasidan o‘z fikrini bayon etishga imkon beruvchi o‘quv uslubidir. Bunday usul o‘quvchilar og‘zaki nutqi o‘sishiga va aqliy fikr, ijod qilishga yordam beradi. Aqliy hujum o‘quvchilarni o‘z tassavurlari, mustaqil fikr yuritishlari, izlanishlari va ijodlaridan samarali foydalanishga undaydi. Aqliy hujumdan mustahkamlash, yangi bilim berish, aralash dars turlarida foydalanilsa muammo, vaziyat, topshiriq va vazifalarning echimini topishga yordam beradi. O‘qituvchi hamma o‘quvchilarni g‘oyalar va fikrlar berishga undashi zarur. O‘quvchilarning bergan g‘oyalari va fikrlari o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

Aqliy hujumdan qachon foydalanish mumkun:

1. Muammolarni va mashqlarni yechishda
2. Qiyin vaziyatda muammoni yechishda
3. Guruhni jipslashtirishda
4. Argumentlar qidirishda
5. Loyiha ishlab chiqishda

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Ľuboš Krišťák, Miroslav Němec, Zuzana Danihelová, “Interactive Methods of Teaching Physics at Technical Universities”, Informatics in Education, 2014, Vol. 13, No. 1, 51–71
2. Oripova N, Rakhimova R, New pedagogical technologies and their application in foreign language lessons, Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, VOLUME 2, ISSUE 1 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2021: 5.423
3. G.Salomov "Literary Criticism and Literary Translation" "Science" Publishing House Tashkent -1983.
4. Abdullayeva Marhabo Raxmonkulovna. Ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima yaraishi va o‘ziga xos xususiyatda. Innovation, integration va ta’lim bo‘yicha xalqaro ma’lumot jurnali, 2 (2), (2021). 297-306
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/fransuz-tili-fonetikasini-qiyoslab-o-rganishning-ahamiyati/viewer>
6. Ahmadaliyeva G. H. et al. YARIMO ‘TKAZGICH MODDALAR VA ULARNING XARAKTERISTIKALARI //Евразийский журнал академических исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 91-93.
7. Yusubjanovna A. M. BIRINCHI TIBBIY YORDAMNING AHAMIYATI VA UNI BAJARISHNING UMUMIY QOIDALARI //PRINCIPAL ISSUES OF SCIENTIFIC RESEARCH AND MODERN EDUCATION. – 2023. – Т. 2. – №. 1.
8. Abdusubxon o‘g‘li U. S. et al. YURAK ISHEMIK KASALLIKLARI VA ULARNI OLDINI OLIHNING ZAMONAVIY USULLARI //PRINCIPAL ISSUES OF SCIENTIFIC RESEARCH AND MODERN EDUCATION. – 2023. – Т. 2. – №. 6.
9. Abdusubxon o‘g‘li U. S. et al. BUYRAK TOSH KASALLIKLARINI HOSIL BO‘LISHIDA GIPODINAMIYANING TA‘SIRI //PRINCIPAL ISSUES OF SCIENTIFIC RESEARCH AND MODERN EDUCATION. – 2023. – Т. 2. – №. 6.
10. Usmonov S., Alisherjonova F. INSON TANASIDA BO‘LADIGAN ELEKTR HODISALARI //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – Т. 3. – №. 4 Part 2. – С. 200-203.
11. Usmonov S., Isroilov S. CHAQALOQLARDA QORIN DAM BO‘LISHINING SABABLARI, DAVOLASH USULLARI //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – Т. 3. – №. 4 Part 2. – С. 196-199.
12. Isroil o'g'li X. M., Abdusubxon o'g'li U. S. GIPERTONIYA KELIB CHIQISHI SABABLARI //INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE ON" MODERN EDUCATION: PROBLEMS AND SOLUTIONS". – 2023. – Т. 2. – №. 5.

13. Abdusubxon o'g'li U. S. et al. BOLALARDA GASTROENTRITNING NAMOYON BO'LISHI //INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE ON" MODERN EDUCATION: PROBLEMS AND SOLUTIONS". – 2023. – T. 2. – №. 5.
14. Abdusubxon o'g'li U. S. et al. KAM HARAKATLIK NATIJASIDA KELIB CHIQUADIGAN KASALLIKLARNI XALQ TABOBATI BILAN DAVOLASHNING TOP 10 TA USULI //SCIENCE AND PEDAGOGY IN THE MODERN WORLD: PROBLEMS AND SOLUTIONS. – 2023. – T. 1. – №. 3.
15. Abdusubxon o'g'li U. S. et al. GIPERTONIYA KASALLIGINI RIVOJLANISHINI OLDINI OLIHNING ENG YAXSHI USULLARI //SCIENCE AND PEDAGOGY IN THE MODERN WORLD: PROBLEMS AND SOLUTIONS. – 2023. – T. 1. – №. 3.
16. Abdusubxon o'g'li U. S. et al. QONNI SUYULTIRADIGAN TOP-10 MAHSULOT //SCIENCE AND PEDAGOGY IN THE MODERN WORLD: PROBLEMS AND SOLUTIONS. – 2023. – T. 1. – №. 3.
17. Abdusubxon o'g'li U. S. ELEKTROMAGNIT MAYDONINING ORGANIZMGA TA'SIRI //SCIENCE AND INNOVATION IDEAS IN MODERN EDUCATION. – 2023. – T. 1. – №. 2.
18. Abdusubxon o'g'li U. S. et al. KONDILOMA VIRUSLARINI DAVOLASHDA KRIOGEN TERAPIYA //PRINCIPAL ISSUES OF SCIENTIFIC RESEARCH AND MODERN EDUCATION. – 2023. – T. 2. – №. 1.
19. Abdusubxon o'g'li U. S., Madaminovna M. F. TA'LIM JARAYONLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARNING TUTGAN O'RNI //International scientific-practical conference on" Modern education: problems and solutions". – 2022. – T. 1. – №. 5.
20. Abdusubxon o'g'li U. S., Madaminovna M. F. FIZIKA FANINI KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O'QITISHNING AHAMIYATI //E Conference Zone. – 2022. – C. 217-219.
21. Abdusubxon o'g'li U. S., Yusubjanovna A. M. YARIMO 'TKAZGICH MONOKRISTALINI O 'STIRISH //E Conference Zone. – 2022. – C. 33-34.
22. Abdusubxon o'g'li U. S. YURAK QON-TOMIR SISTEMASI KASALLIKLARI. MIOKARD INFAKTI PAYDO BO'LISH MEXANIZMI VA OLDINI OLIH CHORALARI //E Conference Zone. – 2022. – C. 227-228.